

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

№69

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

Сканировано с CamScanner

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI

№ 69

(XALQARO KONFERENSIYA MATERIALLARI)

2024-yil 7-fevral

TOSHKENT – 2024

Сканировано с CamScanner

Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari / – “Yashil yaproq nashriyoti”, Toshkent. – 2024. – 424 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamda Respublika Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida 2024-yil 7-fevral kuni o‘tkazilgan Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan 69-ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)

Tahrir hay’ati:

Maqsud ASADOV, f.f.d., prof., bo‘lim mudiri
Qodirjon ERGASHEV, f.f.d., yetakchi ilmiy xodim
Burobiya RAJABOVA, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim
Sayfiddin RAFIDDINOV, f.f.n., katta ilmiy xodim
Zulayho RAHMONOVA, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim
Shahnoza RAHMONOVA, kichik ilmiy xodim
Hamida ASHUROVA, kichik imiy xodim
Elnura QURBONOVA, doktorant

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

Dilmurod ASQAROV
Nasiba JO‘RAQULOVA
Mohigul MAVLONOVA
Muslima XOLBOYEVA
Sarvinoz OTAQULOVA

©Yashil yaproq nashriyoti 2024

Сканировано с CamScanner

4. Erkinov S. Navoiy "Farhod va Shirin"i va uning qiyosiy tahlili.- Toshkent: Fan,1971. – 276 b.
5. Mallaev N. Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodiyoti.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. -431 b.
6. Ahmedov T. "Xamsa" qahramonlarining xarakter jozibasi.- Toshkent: Fan, 1986.- 67 b.

"MAHBUB UL-QULUB"DAGI BIR OBRAZ XUSUSIDA

Nasiba JO'RAQULOVA,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Alisher Navoiy umri davomida el-yurt xizmatida turishni asosiy vazifa o'laroq ko'rdi, komillik maslagining asl mohiyatini odamlarga yordam ko'rsatish, foydali amallar qilishda deb bildi. Ulug' ijodkorning shu asosga qurilgan fikr-mulohazalari hamda hayotiy xulosalari "Mahbub ul-qulub" asarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy asarda yurtga qalqon bo'lib, o'z xalqiga beminnat xizmat qiladigan, umuman olganda, amalida faqat to'g'rilik bo'lgan chin insonni er, eran deb ataydi. Maqolada "Mahbub ul-qulub" asari misolida Alisher Navoiyning er va eran obrazi xususidagi yakuniy mulohazalariga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Er, eran, mard, nomard, shariat, tariqat, rostgo'ylik.

АННОТАЦИЯ

Алишер Навои в течение всей своей жизни предпочитал служить простому народу, быт полезным людям и оказывать им полноценные советы. Выстроенные на этой основе размышления и жизненные выводы бросаются в глаза в произведении "Маҳбуб ул-қулуб" великого писателя. Быть опорой Родине, неустанное служение своему народу, только человека, в поступках которого возвышает чистосердечность Алишер Навои называет терминами эр, эран. В статье уделяется внимание на итоговые заключения на основе образов эр, эран в произведении Алишера Навои.

Сканировано с CamScanner

Ключевые слова: эр, эран, мужество, невежество, шариат, направленность, искренность.

ABSTRAKT

Throughout his life, Alisher Navoi saw service to the country as his main task, he considered perfection to be in helping people and doing useful deeds. The opinions and life conclusions of the great creator built on this basis are clearly noticeable in the work "Mahbub ul-qulub". In Alisher Navoi's work, he calls a real person who is a defender of the country, who serves his people happily, who is always right in practice an er and eran. The article is focused on Alisher Navoi's final comments on the image of er and eran on the example of "Mahbub ul-qulub".

Key words: Er, eran, courageous, ignorant, shariat, tariqat, truthfulness.

"Mahbub ul-qulub" asarida ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning hayotiy xulosalari, ijtimoiy, axloqiy, irfoniy mavzulardagi mushohadalari o‘z ifodasini topgan. Navoiy asar muqaddimasida bu haqda shunday yozadi: "...har ko‘y va ko‘chada yugurubmen va olam ahlidin har nav’ elga o‘zumni yetkurubmen va yaxshi-yamonning af’olin bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen...Va har nav’ el suhbat va xususiyatiki, alarg‘a havas bo‘lg‘ay, bu faqirning tajribasi alarg‘a bas bo‘lg‘ay". Asarning "Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolining kayfiyati" nomli avvalgi qismida jamiyatdagi xilma-xil ijtimoiy qatlam kishilarining fe’l-atvori, harakat-holati haqida teran kuzatishlar yoritilgan. E’tiborlisi, davlat amaldorlari xususidagi mulohazalar ham aynan qirq fasldan iborat mazkur qismda batafsil ochib berilgan. Unda er, eran obrazlari hamda erlik va mardlik fazilatlariga diqqat qaratilishi rahbar ma’naviyatining o‘ziga xos tamoyillari qanday bo‘lishi kerak, degan savolga ham javob topishimizga ko‘mak beradi. Masalan, yasovulni olaylik. Yasovul saroy mansabdori sifatida hukmdor farmonlari ijrosini ta’minlashga mas’ul ekani ayon. Yasovul hukmdor va xalq orasidagi munosabatlarga ta’sir o‘tkaza oladigan, davlatning moliyaviy muvozanatiga javobgar bo‘lgan amaldor hisoblangan. U soliqlar va olingan o‘ljalarning xonga tegishli qismini hisoblash bilan ham shug‘ullangan. Navoiyning e’tiroficha, yasovullar "mazlumni zolimdan qutqor"uvchilardir. Yasovulning tabiatidagi erlik va muruvvat esa oladigan maoshiga qarab belgilanadi. Asarda u xizmatidan ortiq foyda olsa, zolimga sherik, mehnatiga yarasha haq talab qilsa, ona

Сканировано с CamScanner

sutidek halol bo‘lishi aytiladi. Yasovullarlarning jo‘mardligi esa erlik va eranlikka tenglashtirilgan: “Va agar tama’yi haqq ussa’yidin kamdur, erlik va muruvvat anga musallamdur. Va agar sa’y qilg‘ay va olmag‘ay, muzdkim anga haqdur, ani desa bo‘lg‘aykim, valiyi mutlaqdur. Ko‘p eranlar bu ishni shior etibdurlar va bu suluk bila maqosidg‘a etibdurlar”.

Adabiyotimizda er, eran komil inson, yetuk shaxsni tamsil etishi ma’lum. Mazkur obrazning Alloh roziligiga yetgan valiy zot ekanligi ham tasavvufiy lug‘atlarda bayon qilingan. Navoiygacha bo‘lgan davr adabiyotida bu obraz orif, darvesh, faqir, oshiq singari tasavvufiy timsollar qatorida umumlashma obraz sifatida ko‘ringan va, ayniqsa, Yassaviy hikmatlarida uning irfoniy quvvati aniq ifoda qilingan. Biroq Navoiyning hassosligi shundaki, er, eran obrazini shoir ijtimoiy muhit va el-yurt farovonligi yo‘lida mas’uliyat sezgan hayotiy timsol darajasida gavdalantiradi. Sharq adabiyotida komil inson nazariyasi asoschisi Shayx Aziziddin Nasafiyning yozishicha, “komil inson Xudoni tanib, Xudo diydoriga musharraf bo‘lgach va narsalar mohiyati, narsalar hikmatini bilib olgach va ko‘rgach, ...olamni tuzatish, xalq orasida to‘g‘rilik, rostlikni yuzaga keltirish va yomon odatlar, rasm-rusumlarni xalq o‘rtasidan olib tashlash va xalq orasiga ezgu qonun-qoidalarni joriy etadi”. “Mahbub ul-qulub”da ana shunday oliyjanob vazifalarni o‘z zimmasiga olgan davlat amaldorlari er va eranlar deb ta’riflangan.

Jumladan, o‘ttiz oltinchi faslda navkarning ustoziga bo‘lgan munosabati va xizmat mujodalasi xususida so‘z borarkan, murabbiyga munosib bo‘lmoq erlik va insoniylik nishonasi ekani aytiladi: “Erlik va insoniyat uldurkim, muqobalasida qulluq va xidmatkorlik, balki yakjihatlik va jonsiporliq qilg‘ay va tilagaykim, anga jon fido etgay to shafqati huquqin ado etgay”. Mazkur faslda Navoiy o‘z tarbiyachisiga sadoqat bilan xizmat qilgan va uning haqini ado etish uchun jonini ham ayamaydigan navkar erlik va insoniylikdan nasibador ekanligini uqtiradi. Ahamiyatlisi, shoir inson tabiatidagi odamiylik va erlik ayni tushuncha degan fikrni ilgari suradi. Navoiy shu o‘rinda munosib tolib bo‘la olmaganlar kasbiy vazifasini ham sidqidildan ado etolmasligi haqida gapiradi: “Erki bir yerdin yana bir yerga qochqay, nomardliq tufrog‘in yigitlik boshig‘a sochqay. Chun mundoq kishi erlik sonidin noridur va yigitlik doirasidin tashqaridur”. Ya’ni bundaylar er va yigit nomiga noloyiqdir. Agar eranlar biror ayb ish qilib qo‘ysalar, o‘limga ham mardona boqadilar, nomardlar esa munofiqlik va riyokorlik tabiatini namoyish qilib, xalq oldida masxara bo‘lishadi: “Eranlardin

Сканировано с CamScanner

mardona gunoh vujudqa kelsa, bo'ynig'a yuklangandin so'ng bo'ynin urarlar, qizil yuzluk qilur uchun bo'ynig'a tig' surarlar. Ammo aning(matn avvalida kelgan erlik sonidan nari bo'lgan kimsalar nazarda tutilmoqda) so'rxrulug'ig'a gulguna sazovordur va yuz oqlig'ig'a munosib sapida bordurkim, qari muxannas mabhut va aning xolazodasi kaftori fartut shirkat bila mashshotaliq tuzgaylar". Shoir qo'rqoqning xolazodasini qari muxannas deb atab, erlikning ziddi o'laroq bu ifodani keltiradi. Navoiy bundayin sharmandalikning ko'rinishini shu qadar mahorat bilan tasvirlaydiki, ularning qoshini terib, o'sma qo'yishlari, soqolini qirib, ikki qulog'i yoniga gajak qilishlarini birma-bir yoritadi. Nomardlarning qadari shoxdor ho'kizga teskari mindirib, shahar ko'chalarida sazoyi bo'lish bilan yakunlanishi faslda alohida ta'kidlanadi. Navoiygacha bo'lgan ijodkorlarda er zaif bo'lishi mumkin emasligi, agar shunday bo'lsa, nomard va nojins deb atalishi aytiladi. Ammo er qo'rqoq bo'lsa, muxannasga teng bo'lishi va uning qismatidagi sharmisorliklarning kichik detallar bilan aniq ko'rsatilishi boshqa ijodkorda uchramaydi.

Er kishining zeb-ziynatga o'chligi esa "zuafo sheva" - xotinlar ishidir. Navoiyning bunga ham jonli misoli bor: sayoq mutrib va mug'anniylar – "er suratidagi shoxidedur tannoz"lar. Hatto riyokor shayxlar haqidagi qismda tashqi ko'rinishga ortiqcha e'tibor berish qattiq qoralangan: "Suratida buncha pech dar pech, ma'nisi xud boshdin-ayoq hech. Bu habis zotg'a buncha oroyish, eranlar holidin anda namoyish. Hayhot-hayhot, uyat, yuz ming uyat".

"Mahbub ul-qulub"da erlik fazilatlari yorqinroq yoritilishi uchun nomard kishilardagi salbiy illatlarga ham diqqat qaratilgan: "Muxannas ne hashvki demagay, makiyon ne najosatki emagay. Erdin so'z hunar, enchidin bo'z hunar". Bir qit'asida mutafakkir shoir bu fikrlarini shunday xulosalaydi:

Er urub la'l toj ila gulbong,
Zangvash el qaysi harzakim demagay,
Vaqtida tortibon xurus nido,
Ne najosatki makiyon yemagay.

Professor I.Haqqulga ko'ra, "Mard – la'l toj ila bong uradigan xo'roz. G'arazgo'y, vaysaqi nomard – mokiyon. Xurus ma'lum vaqtda nido tortganidek, mard ham o'z paytida gapini aytadi, zaruriyatga qarab munosabatini bildiradi. Mard – maydon odami, u erkin yashaydi". Demak, Navoiy er deganda hamiyatli, haqiqat yo'liga qadam bosishdan sira cho'chimaydigan mard va jasur kishilarni nazarda tutgan. Aksincha,

Сканировано с CamScanner

turfa davralarga oson evriladigan, ma'nan tuban, o'zligidan mahrum - shaxsiyatsiz kimsalarni ayovsiz tanqid qilgan. Mumtoz adabiyotda erlarning rostgo'y va kamgapligi, har qanday vaziyatga mohiyat nazari bilan qarab, behuda gaplarga o'rin qoldirmasligi ibrat qilib ko'rsatiladi. Misol uchun, "Qutadg'u bilig"da so'zi chin bo'lmaganlar er emas, degan qat'iy gap aytilgan:

Сози чын керек бег қыйықсыз кони,
Созинде яныглыг тема эр аны.

"Mahbub ul-qulub"da bu fikr-mulohazalar yanada rivojlantirilgan, desak aslo xato bo'lmaydi: "Yog'onchi kishi emas, yolg'on aytmoq eranlar ishi emas". Yana bir o'rinda "Chin so'zkim erga ulug' hunardir". Muqqaddas kitobimiz Qur'oni karimda ham yolg'onchilik va yolg'on so'z keskin qoralangan: ***"Yolg'onni faqat Allohning oyatlariga iymon keltirmaydiganlargina to'qirlar"(Nahl, 105).*** Yolg'on - munofiqlik belgisi. Navoiyning "Ulki shior ayladi yolg'on demak, bo'lmas ani er-u musulmon demak", deb xulosa berishi ham bejiz emas. Hatto ko'p gapirish ham til ofati bo'lib, u kishini g'iybat, chaqimchilikka undaydi. Insonning aslini, kimligini uning so'zidan bilsa bo'ladi. Yolg'onchilik jur'atsizlik va zaiflik hosilasi bo'lsa, vaysaqilik aql va mushohadaning noqisligidandir. Turkiy adabiyotda mardlik, jasorat va himmat ramzi hisoblangan erlar rostgo'ylikda ham ibrat qilib ko'rsatilishi shundan. Ulug' shoir ham "Er kishiga zeb-u ziynat hikmat-u donishdurur" deydi.

Er, eran obrazi qadimgi turkiy namunalarda jo'mard pahlavon sanalgan. Biroq er timsolining mohiyati irfoniy adabiyotda yanada yaqqolroq yoritiladi. Erning quvvat-u qudrati uning ilohiy amrlarga so'zsiz itoat etishi - e'tiqodida to'la namoyon bo'ladi. "Mahbub ul-qulub"da o'qiymiz: "Shariat- jodayedur tuz, anda xoh kecha yur-u, xoh kunduz. Sirotidur, bag'oyat mustaqim, anda oziqmoqdin ne vahm va ne biym. Har kimki ul yo'lg'a odim bo'lg'ay, iki jahon saodati anga mulozim bo'lg'ay...Har kim bu yo'lni mardona qat' qilsa, er uldur". Kamolot yo'li shariat va tariqat vobastaligi ekani adabiyotlarda yozilgan. Shayx Muhammad Sodiq bu haqda Abu Yazid Bistomiydan quyidagi fikrni ibrat sifatida keltiradi: "Agar karomatlar berilib, hattoki osmonga ko'tarilayotgan kishini ko'rsangiz, to uning amr va nahyni tutganini, chegarada turganini va shariatni ado etayotganini ko'rmaguningizcha, uning bilan aldanib qolmang". Ulug' so'fiy Ahmad Yassaviy: "Har kim qilsa tariqatning da'vosini, Avval qadam shariatga qo'ymoq kerak", deya shar'iy ahkomlar zaruriyatini ta'kidlagan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi muqaddimasida avliyolik sifatlarini

Сканировано с CamScanner

birma-bir sanar ekan, shariat rioyati haqida shunday deydi: "...ul jodada istiqomat bo'lg'ay va ulcha mumkindur ondin qadam tajovuz qilmag'oy". Navoiyning er haqidagi xulosasi avvalgi asarlarida berilgan fikrlarning uzviy davomidir. "Nasoyim ul-muhabbat"da Abu Hafs Haddodning quyidagi gapi ham erlik chin musulmonlik ekanini dalillaydi: "Har kim har vaqtda af'ol va aqvolin kitob va sunnat mezoni bila vazn qilib, rost qilmag'ay, ul kishini er demasbiz".

"Mahbub ul-qulub"da er shariatda mardona zot deyilgan bo'lsa, eran tariqatda manzilga etgan solik sifatida ko'rinadi: "Eranlar hollarin suratin yoshurubturlar va malomat suratida na'li bozguna urubturlar va zohirlari binosin buzubturlar va botinlari asosin tuzubturlar. Qazodin ne kelsa o'zlarin rizog'a yosobturlar va olam ahlining qotig' ranj va irik malomatig'i chidabdurlar. Yemak-ichmakdin kechibdurlar, Haq rizosin istarda g'am eb va qon ichibdurlar. Rizovu taslim zoviyasi maqomlari, fano bodiyasida oromlari". Navoiy "Lison ut-tayr"da Haqqa yetmoq yo'lidagi eng oxirgi maqom, ya'ni komillik darajasini fano tariqi, deb ataydi. Alloh sari bormoqning o'n asosi haqidagi "Usuli ashara" risolasida bunday maqom rizo deb nomlanadi. Najmiddin Kubro bu holni "hayoti haqqoniyya" deb ataydi va shunday ta'riflaydi: "Bunda foniy nechog'lik erib, oqib ketsa, boqiy shunchalik ustivorlashadi. Va bundan keyin boqiyning hukmi vojib bo'ladi". Fano insonning nafsoniy istaklar va badbin illatlardan poklanib, "men"ligini unutishi, har narsani Yaratgandan deb bilib, Allohdan boshqa mavjudlikka nazar solmasligidir. Navoiyga ko'ra:

Gar fano rasmini qilmoq tilar ersang mazbut,
Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut.

Ulug' shoir asarlarida er riyozat bosqichlaridan mardona o'ta olgan foniy bir zot sifatida tavsiflanadi:

Uldur erkim, salb etib nafsoniyat,
G'olib etgay zotig'a ruhoniyat.

Komillik tomon bormoq bir saodat, bundayin azm-u shijoat chin odamiylik nishoni, ammo nafsni isloh qilib, Haqni tanib, so'ngra xalqni ma'rifat tomon boshlamoq Yaratgan ato etgan murshidlik darajasidir. Usmon Turarga ko'ra, "...har murshid yoki shayx valiydir, ammo har valiy murshid emas. Shayxlik ko'plab ijobiy sifatlarni o'zida jo qilgach, Haq tomonidan omonatga beriladigan maqomdir". Er, eran Alloh tomonidan vazifa yuklangan valiy hisoblanadi. "Mahbub ul-qulub"da er mana shunday ta'rifga loyiq ko'rilgan: "Eranlar xizmatig'a ulki umrin sarf etar, agarchi umri ketar, ammo jovid umrig'a yetar.

Сканировано с CamScanner

O‘zungni bu zumradin yiroq tutma, boshing borsa bu muddaoni unutma.
Umr foniydur bevafo, ul boqiy hayot mujibi baqo.

Eranlar xizmatidin chekmagin bosh,
Agar boshingga gardundin yog‘ar tosh.
Ki, gar ul tosh bila boshing ushalg‘ay,
Saodat xattidur, gar zaxmi qolg‘ay”.

Navoiygacha bo‘lgan davr badiiy namunalarida er timsoli haqidagi ta’rif-u tavsiflar nihoyatda ko‘p, xususan, u tariqatda manzilga yetgan muttaqiy, Haq roziligiga yetgan valiy zot sifatida ulug‘langan. Biroq Navoiy ijodida er va eranga xos fazilatlar hayotiy misollar orqali yorqin tasvirlangani ma’lum bo‘ldi. Ahamiyatlisi, shoir badiiy tafakkur imkoniyatlaridan keng istifoda etib, er timsolining bir qadar mukammal qiyofasini tasavvurimizda aniq jonlantiradi. Xullas, iymon-e’tiqodda sobit, Haq amrlariga so‘zsiz bo‘ysinuvchi, o‘z manfaatlaridan Vatan, xalq va odamlar manfaatini ustun qo‘yuvchi, chinakam fidoyi va zahmatkash inson haqiqiy erdir. “Mahbub ul-qulub”dagi erlik bilan bog‘liq qarashlar mana shunday xulosa beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1.Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – 768 б.

2. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. ТАТ. 10 жилдлик, 9-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. – 768 б.

3. Насафий А. Комил инсон китоби. Н. Комилов ва О. Давлатов таржимаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 232 б.

4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – 964 б.

5. Ҳаққул И. Касби камол ўзни танишдир. – Тошкент: “Ёшлар матбуоти”, 2021. – 272 б.

6. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Н. Ҳасан таржимаси. – Тошкент: “Истиқлол”, 1999. – 180 б.

Сканировано с CamScanner

MUNDARIJA

ALISHER NAVOIY VA MUMTOZ ADABIYOT

Maqsud Asadov (O‘zbekiston). Navoiy ijodida so‘z, ma’no va tasvirdagi o‘ziga xosliklar.....3
Almaz Ulvi (Ozarbayjon). Əlişir Nəvainin “Siracul-müslimin” əsərində islam ehkamlarinin estetik qayə və şərhi.....9
Ergash Ochilov (O‘zbekiston). Navoiy va Berdaq.....25
Dildora Abdullayeva (O‘zbekiston). Mumtoz dostonchilikda Hotami Toyi syujeti.....32
Salomat Matkarimova (O‘zbekiston). Alisher Navoiy an’analari Avaz O‘tar ijodida.....41
Mavlonberdi Suyunov (Tojikiston). Navoiyning Hofizga tatabbu’larida uslubiy o‘ziga xosliklar.....46
Sohiba Umarova (O‘zbekiston). Alisher Navoiyga izdoshlik va badiiy kamolot.....57
Sofiya Jumayeva (O‘zbekiston). Navoiy ijodida raqamlar bilan bog‘liq ba’zi qarashlar.....63
Gulchehra Boltayeva (O‘zbekiston). Alisher Navoiyning Lutfiyga taxmisi xususida.....68
Saboxon Jo‘rayeva, Shoiraxon Asqarova (O‘zbekiston). Mulla Shams Shavqiy muxammasida me’roj tasviri.....74

ALISHER NAVOIY ASARLARI POETIKASI

Qodirjon Ergashev (O‘zbekiston). Navoiyning uslubiy mahorati: novatorlik, bayon va tasvir uyg‘unligi.....81
Nurboy Jabborov (O‘zbekiston). “Lison ut-tayr”da muallif konsepsiyasi talqini.....88
Usmon Qobilov (O‘zbekiston). Alisher Navoiy she’riyati obraz-timsollar ko‘lami tadqiqiga doir.....97
Sayfiddin Rafiddinov (O‘zbekiston). Navoiy ijodida saxovat tushunchasi.....103
Burobiya Rajabova (O‘zbekiston). “Quyoshliq istasang kasbi kamol et”.....114
Zilola Amonova, Maftuna To‘rayeva (O‘zbekiston). Navoiy she’riyatida inson tana a’zolarining qo‘llanishi xususida.....124

Сканировано с CamScanner

[illegible] Xo'jayev (O'zbekiston). Navoiy asarlarida inson umrining davrlar [illegible] talqini.....129
[illegible] Sabitova (O'zbekiston). "Lison ut-tayr" dostonida majoziy [illegible] talqini.....134
[illegible] Zohidova, Shoira Xo'jayeva (O'zbekiston). "Nazm ul-[illegible]" [illegible]larining qofiya xususiyatlari.....143
[illegible] Xo'janova (O'zbekiston). "Mahbub ul-qulub"da huquqiy ong [illegible] tushunchasi.....151
[illegible] Rahmonova (O'zbekiston). Yetti vodiy sayri.....156
[illegible] Qavonov (O'zbekiston). Buyuk beshlikning islomiy-irfoniy [illegible] tadqiqi.....170
[illegible] Kazakbayeva (O'zbekiston). Study of complex structural genres in the work of Alisher Navoi.....176
Nafosat O'roqova (O'zbekiston). Navoiy lirikasida faunistik obrazlarning ramziy talqini.....185
Munira Xudoyorova (O'zbekiston). Navoiy ijodida fano talqinlari tadqiqi.....191
Nigora Sharipova (O'zbekiston). "Hayrat ul-abror" strukturasida munojotning o'rni.....196
Shahnoza Rahmonova (O'zbekiston). "Nasoyim ul-muhabbat"da xos va avom talqini.....202
Nafisa Raxmanova (O'zbekiston). Shirin obrazining tarixiy asarlardagi talqini.....206
Umida Otayarova (O'zbekiston). "Saddi Iskandariy" dostonidagi hikoyatlarda tarixiy shaxslar obrazi.....214
Farangis Abdulloyeva (O'zbekiston). Navoiy she'riyatida qish tasviri poetikasi.....219
Mohigul Mavlonova (O'zbekiston). Mehinbonu obrazi xususida.....225
Nasiba Jo'raqulova (O'zbekiston). "Mahbub ul-qulub"dagi bir obraz xususida.....230
Hamida Ashurova (O'zbekiston). Navoiyning epik asarlarida Ayyub (a.s.) obrazi talqini.....237
Sarvinoz Otaqulova (O'zbekiston). Navoiy debochalarida faxriya.....243
Gulfuza Madirimova (O'zbekiston)"Mahbub ul-qulub"da nabiylar obrazi.....246
Rayhonoy Yangiboeva (O'zbekiston). "Kishiki istasakim, yetmagay malolat anga..."....252
Nozima Miravlatova (O'zbekiston). "Sab'ai sayyor"dagi Axiy obrazi tahlili.....258

Сканировано с CamScanner